

MADANIYAT SOHASIDA PABLIK RILEYSHNZ (JAMOATCHILIK
BILAN ALOQALAR) VA REKLAMA

Sh.K.O'rinov,

Buxoro davlat universiteti,

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedراسi o'qituvchisi

G.Bozorboyeva,

Buxoro davlat universiteti,

*Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta'lim
yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Madaniy-ma'rifiy faoliyat ko'p qirrali jarayon bo'lganligi sababli ijtimoiy hayot, ijtimoiy ong va jamoatchilik fikrining deyarli barcha sohaları bilan chambarchas bog'liqdir. Madaniyat muassasalari mehnatkashlarning asosan bo'sh vaqtlari jarayonida faoliyatlarni amalga oshirishlari sababli jamoatchilik fikrini tarkib toptirishda samarali natijalarga erishish imkoniyatlariga egadir. Bu ishni amalga oshirishda jamoatchilik bilan aloqalar hamda reklamaning o'rni beqiyos. Jamoatchilik bilan aloqalar va reklama barcha sohada rivojlanish asosidir.

Kalit so'zlar: *madaniyat, jamoatchilik bilan aloqalar, reklama, targ'ibot, axborot kuchi, xulq-atvor madaniyati, madaniyat markazlari*

Ma'lumki, madaniyat har qanday xalqning o'ziga xosligini belgilovchi an'ana va urf-odatlarining barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etgan faoliyat hisoblanadi. Madaniyat shaxs subyektivligining namoyon bo'lishi bo'lib, butun jamiyat va butun davlatni qurish uchun asos, ularning rivojlanishi, farovonligi va barqarorligining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Va bugungi kunda birlamchi moddiy ehtiyojlarni qondirish muammolari bilan bir qatorda madaniyat va madaniy ijod muammolari ham birinchi o'ringa qo'yilayotgani bejiz emas. Zero, bu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotining o'sib borayotgan dinamikasi bilan bog'liq bo'lib, bu davrda madaniy qadriyatlar unutilib chetda qolmoqda. Bu esa jamiyatga mos bo'lmagan xulq-atvor madaniyatining o'zlashtirilishiga va uning o'ziga xosligini yo'qotishiga olib kelmoqda.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy meros, xalq ma'naviyati durdonalari va an'alarini tiklash, rivojlantirish, targ'ib qilish ishlariga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Ular bir tomondan aholi turli qatlamlarini madaniyat namunalaridan bahamand bo'lishga sharoit yaratib bersa, ikkinchi tomondan, kishini madaniy hayotini bevosita yaratuvchisiga aylantirishga ham da'vat etadi, uchinchi tomondan esa insonning to'laqonli madaniy qiyofasi, xulq-atvori, odobi va axloqining umuminsoniy va milliy andaza, talablar doirasida shakllanishiga undaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnat jamoasi, ko'ngilli uyushmalar, oila va shaxs hayoti oldida turgan ma'naviy ehtiyojlarni

qondirishga va turli ijtimoiy-madaniy muammolarni yechishga ham imkoniyat izlaydi. Zero, mehnatkash xalq turmush tarzini boy ma'naviy mazmun bilan to'ldirish, badiiy bezashga ko'maklashish muhim ijtimoiy masalalardir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Aholining madaniy dam olishini uyushtirish;
- Kishilar dunyoqarashini ma'naviy-ma'rifiy boyitish, intellektual saviyasini oshirish;
- Ommaning ijodkorligi va tashabbuskorligini taraqqiy ettirish;
- Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy qadriyatlarimizni e'zozlash, moddiy va ma'naviy qadriyatlarimizni avaylab- asrash,saqlash va yanada rivojlantirish;
- Xalqning milliy ongini, o'z-o'zini anglash darajalarini oshirish;
- Aholiga yangi va rang-barang axborotlar berib turish;
- Nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar va yolg'izlarga ma'naviy yordam ko'rsatish.

Jamiyat kundan-kunga to'xtovsiz rivojlanmoqda. Har sohada yangi fikr, yangi innovatsiya, yangi qadamlar tashlanmoqda. Shu bilan birga yangi mafkuralar ham shakllanib bormoqda.

Hozirgi davrda, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'lmoqda. Ba'zi yoshlar ongida va ma'naviy hayotida bo'shliqning paydo bo'lishiga mahalliy madaniyat muassasalarining talab darajasida ishlamayotganligi sabab bo'lmoqda. Klublar, madaniyat uylari, kutubxonalar, istirohat bog'lari mahalliy aholi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga va ularni g'oyaviy, ma'naviy kamol topishiga samarali xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, madaniyat tizimining moddiy negizini yaxshilash muhim muammolarning biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Avvalo, madaniyat tizimi o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash ishlarini ham yaxshi yo'lga qo'yishi zarur.

Aytish mumkinki, madaniyat va san'at sanoati yo'lga qo'ymasdan bu sohani taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kino sanoati (ssenariy yaratish, kino olish, ularni targ'ib qilish), musiqa sanoati (musiqiy asarlarni yaratish, ijro qilish, ovoz yozib olish va ularni tarqatish), tasviriy san'at sanoati (tasviriy durdonalar yaratish, ularni targ'ib qilish, ko'rgazma-savdolar, auksionlar uyushtirish) kabilarni yanada yaxshi yo'lga qo'yish zarur bo'lmoqda.

Bundan tashqari, mdaniyat tizimi faoliyatini yaxshilash uchun unga, albatta, ko'proq faol qiziquvchi, tashabbuskor va izlanuvchi ijodkorlarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Madaniyat jonkuyar, tashabbuskor tashkilotchilar bilan tirik. ularsiz madaniyat tizimi ishlay olmaydi va inqirozga uchraydi. Shu bilan birga sohada targ'ibot ishlarini olib borish, reklama va jamoatchilik bilan aloqalarni muntazam o'rnatish soha rivojlanishiga hissa qo'shadi

Bugungi kunda har qanday sohaning rivojlanishi reklama va targ'ibot ishlari bilan bevosita aloqador bo'lib qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar madaniy muhitning xususiyatlariga bog'liq. Madaniy muhitning rivojlanishi esa reklama va jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Jamoatchilik bilan aloqalar o'zaro tushunish orqali tashqi muhit (va bu ularning asosiy maqsadi) bilan uyg'unlikka erishish san'ati va fani sifatida alohida jamoat guruhlari va tashkilotlari o'rtasida o'zaro aloqani o'rnatishga yordam beradi. Bu katta hajmdagi axborotni qayta ishlash va uni jamoatchilik bilan aloqalar xizmatlari tomonidan aloqa kanallari orqali keyinchalik tarqatish orqali ta'minlanadi.

Binobarin, jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati axborot makoniga faol munosabat shaklidir. Axborot kuchi ma'lum ma'lumotlarni maqsadli ravishda tarqatish orqali odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Jamoatchilik bilan aloqalar asosan ommaviy axborot vositalari orqali kengaytiriladi, barcha sohalarda jamoatchilikning maqsadli guruhlari o'rtasidagi munosabatlarda kommunikativ vositachi bo'lib, aloqa va ma'lumotlarni yetkazish vositasi hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) mohiyati – davlat va xalq, tashkilotlar va jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni ilmiy tashkil etish hamda muntazam yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Shunday qilib, jamoatchilik bilan aloqalar:

-Ommaviy axborot vositalarining har xil turlari (ham axborot, ham reklama xarakterida) – maqolalar, radio yoki televideniyaedagi ommaviy e'lonlar, intervyular;

-Bolalar muassasalariga (maxsus maktablar, maktab-internatlar, ijtimoiy boshpanalar, mehribonlik uylari va boshqalar) homiylik qilish – moddiy yordam ko'rsatish, shuningdek o'z tarbiyalanuvchilarining madaniy-ma'rifiy hayotida ishtirok etish, bolalarning dam olishini tashkil etish, savodxonlik darslari va boshqalar;

-Davlat xizmatchilarining madaniy hayotini ommalashtirish (bo'sh vaqtlarini tashkillashtirish va uni mazmunli o'tkazish hamda ularni munosib ravishda rag'batlantirish);

-Aholini har tomonlama axborot bilan ta'minlash maqsadida zarur hollarda boshqa davlat va tijorat tashkilotlari vakillarini jalb etgan holda aholi uchun turli masalalar bo'yicha seminarlar va davra suhbatlari o'tkazish;

-Aholi bilan aloqalarni tashkil etish (ayniqsa, chekka aholi punktlarida qabul qilish);

-Turli risolalar, ma'lumotnomalar, varaqalar va boshqalarni nashr etish orqali izchil yo'lga qo'yilishi kerak.

Hozirgi vaqtda reklama jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy paradigmalarni belgilovchi davlat instituti maqomiga ega bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalarida va tashqi reklama namunalari orasida ijtimoiy reklamaning miqdori va sifati reklama biznesining ijodiy, ma'naviy tamoyillar tashuvchisi ekanligidan dalolat beradi. Madaniyat sohasida qaraydigan bo'lsak, teatrlarda tashkil etilayotgan ijod mahsullarini reklama va turli xil targ'ibotlar orqali ommaga yetkazamiz, tomoshabinlarning qiziqishini orttirish, ularning sonini ko'paytirish orqali ham teatr san'atini bir qadam yuqoriga olib chiqishimiz mumkin.

Shu bilan birga Madaniyat markazlarida yoki klublarda boshqa soha (masalan, psixologlar, bolalar bilan ishlaydigan turli soha vakillari)ning shaxsiy bizneslarini shakllantirish orqali ham madaniyat va san'atni targ'ib qila olishimiz mumkin deb o'ylayman. Deylik, Madaniyat markazi binosida hozirgi kunda ommalashib borayotgan yosh bolalarning nutq xususiyatlari bilan ishlaydigan shaxslar uchun xonalar ajratib berilgan va bu yerda bu shaxslar o'z faoliyati bilan shug'ullanadi. Bilamizki 4-5-6 yoshdagi bolalar juda qiziquvchan bo'ladi. Ota ona o'z farzandini Madaniyat markazi binosida olib kelyapti, albatta bolalar markazda faoliyat yuritadigan to'garaklar bilan bevosita tanishadi va ularda yangi jarayonlarga nisbatan qiziqish uyg'onadi. Albatta bu bolalarda san'at bilan bog'liq tafakkur shakllanadi. Bolalar ongini shu orqali madaniy qadriyatlar orqali shakllantirish, milliy ruh ostida ulg'aytirish mumkin. Bu esa o'z navbatida shu bolaning san'at ruhida voyaga yetishida yordam beradi. Biz madaniyat va san'atni targ'ib qilishni xuddi shunday yosh avloddan boshlashimiz kerak.

Xulosa shuki, jamoatchilik bilan aloqalar zamonaviy jamiyatda obyektiv, doimiy mavjud bo'lgan ijodiy funksiyani bajaradi. Konstruktiv (ijodiy) funksiya jamoatchilikning turli guruhlari o'rtasida samarali muloqot va qulay munosabatlarni yaratish va qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shish uchun mo'ljallangan. Bunda ta'sir obyekt sifatida jamoatchilik fikri yoki uning ma'lum bir qismi o'z vakillari o'rtasida muayyan xulq-atvor madaniyatini shakllantirish maqsadida qabul qilinadi. Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassislar doimiy ravishda madaniy va ma'naviy sohadan o'z subyektining manfaatlarini qondirish uchun nima foydali, muhim va zarur bo'lganini, uning yashashi va rivojlanishini ta'minlaydigan narsani va bunga nima zid ekanligini tanlab oladi.

O'zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalar, xalq bilan muloqot muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Jamoatchilik fikri – fuqarolik jamiyatini o'zida aks ettiradigan bamisoli bir ko'zgu ekanligi hayotda o'z isbotini topmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigida ta'kidlanganidek, "Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu

tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz”

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.HAYDAROV. “MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI BOSHQARISH ASOSLARI”.
2. U.QORABOYEV “O‘ZBEKISTON MADANIYATI”
3. S. TUYCHIYEVA “MADANIYAT VA SAN’AT- RENESSANS POYDEVORI
4. Orinov S. K. et al. UNDER THE ADMINISTRATION OF THE FIELD OF CULTURE AND ARTS FOREIGN MODELS (US EXAMPLE) //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 27. – C. 214-221.
5. Xolmo‘minov M. et al. RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O ‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 156-160.
6. Urinov S. K., Nematullayeva S. CULTURAL CENTERS ARE A PLACE OF KNOWLEDGE AND ENLIGHTENMENT //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 100-106.
7. Mo‘minmirzo X. Z. O. L. et al. YANGI O ‘ZBEKISTONDA MILLIY RAQS SAN’ATIGA QARATILAYOTGAN YUKSAK E‘TIBOR (“LAZGI” RAQSI MISOLIDA) //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 168-172.
8. O‘rinov S. K., Nematullayeva S. BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY METODLARI //Наука и технология в современном мире. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 58-61.
9. Ne‘matullayeva S. et al. MADANIYAT MARKAZLARINING PROFESSIONAL JAMOALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH MASALALARI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 25-29.
10. Xolmo‘minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT BO ‘LIM MUDIRLARINING ISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 95-101.
11. KO S. et al. SSENARIYDA SAN’AT VOSITALARINING O‘RNI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 26. – C. 102-105.

VOLUME-1, ISSUE-4

12. Xolmo‘Minov M. M., Qolqanatov A. MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 568-580.
13. KO‘rinov S., Sadullayeva S. MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI //IJODKOR O‘QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 26. – C. 97-101.
14. Togonbayeva Z., Kholmominov M. THE IMPORTANCE OF STATE ADMINISTRATION IN THE FIELD OF CULTURE AND ART IN THE NEW UZBEKISTAN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – T. 3. – №. 3. – C. 275-277.
15. KOrinov S., Shirinova A. BARCHA TURDAGI RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA OMON QOLISHNING ASOSIY SHARTI (SAN‘AT MENEJMENTI SOHASIDA) //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 97-101.
16. Холмўминов М. З. Ў. САН‘АТ МЕНЕЖМЕНТИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА МЕЎЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ //Oriental Art and Culture. – 2021. – T. 2. – №. 4. – C. 123-130.
17. Orinov S. K., Rozimurodova S. Maqom San‘atiga E‘tibor Milliy San‘atimizga E‘tibor //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – C. 58-60.
18. O‘rinov S. K., Halimova G. HAVASKORLIK BADIY JAMOALARI TUSHUNCHASI VA FUNKSIONAL VAZIFASI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 754-757.
19. Xolmo‘minov M. Z. O. L. 20172022-YILLAR MOBAYNIDA MADANIYAT VA SAN‘AT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SARHISOBI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 558-567.
20. KOrinov S., Ismoilova M. BOSHQARUV KONSEPSIYASI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 2. – C. 62-64.
21. Mo‘Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 57-62.
22. KOrinov S., Hasanova M. BOSHQARUV MADANIYATI TARKIBI FUNKSIYALARI MEZONLARI-MADANIYAT MARKAZLARI MISOLIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 2. – C. 65-66.
23. Xolmo‘minov M. Z. O. L. et al. MADANIYAT MARKAZLARIDA TO‘GARAQLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 102-107.

VOLUME-1, ISSUE-4

24. KOrinov S., Habibullayeva M. ART MENEJER–MARKETING FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 2. – C. 59-61.
25. Xolmo‘minov M. Z. O. L. PROFESSOR AZAMAT HAYDAROV KITOBLARIDA MA’NAVIYMA’RIFIY ISLOHOTLAR TAHLILI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 255-263.
26. KOrinov S., Jahongirova N. O'ZBEKISTONDA TEATR FAOLIYATIDA MARKETINGNING RIVOJLANISHI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 161-162.
27. Kholmuminov M., Qolqanatov A. The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population //International Journal on Integrated Education. – 2021. – T. 4. – №. 12. – C. 146-151.
28. KOrinov S., Raupova M. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA MUZEYLARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 116-118.
29. Nilufar M., Kholmuminov M. Requirements for Young Leaders in Culture and Arts Management //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 5-9.
30. KOrinov S. et al. NOANANAVIY MAYDON TOMOSHA DRAMATURGIYASIDA INVERSIYA USLUBI, KOMPOZITSION BIRLIK ASOSI //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – T. 26. – №. 1. – C. 113-115.
31. Mo‘Minmirzo Zokir O. G. L. et al. TEATR FAOLIYATIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 57-62.
32. O‘rinov S. K., Nurilloeva G. A. TASVIRIY SAN’AT MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 152-156.
33. Xolmo‘Minov M. M., Qolqanatov A. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA’RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN) //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 1. – C. 281-290.
34. O'rinov S. K., Abduraxmonova X. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI BOSHQARUVNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 1. – C. 226-231.
35. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.

VOLUME-1, ISSUE-4

36. Madrimov, B. K., & Rajabov, T. I. (2022). Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics. *Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science*, 1(4), 53-56.
37. Rajabov, T. (2022). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(21), 21-31.
38. Ibodovich, T. R. (2022). PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
39. Ibodovich, R. T. (2021). EDUCATIONAL IMPORTANCE OF CHILDREN'S FOLKLORE SONGS IN MUSIC CULTURE CLASSES. *Thematics Journal of Arts and Culture*, 5(1).
40. Ibodovich, R. T. (2020). Aesthetic education of students through national values (on the example of bukhara children's folklore). *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8, 237-240.
41. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN*, 2795(546X),
42. Ражабов, Т. (2023). О 'zbek bolalar musiqiy o 'yin folklorining mavzuviy tasnifi. *Общество и инновации*, 4(5/S), 340-345.
43. Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыка И Песни. *Miasto Przyszłości*, 29, 363-367.
44. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 59-68.
45. Rajabov, T. I. (2022). The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education.
46. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. *Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN*, 2795(546X), 1